

GENDER TENGLIGI

Joniuzoqova Sarvara Sodiqjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti,
1-kurs “A” potok 3-guruh talabasi.

sarvarajonuzoqova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14251710>

Annotatsiya. Ushbu maqola gender tengligi tushunchasi, ushbu konsepsiyaning yaralishida o‘z hissasini qo‘shgan bir qancha olimlar, o‘rganishlar natijasida vujudga kelgan savollar va gender tenglik tarixi haqida ma‘lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Gender tengligi konsepsiyasi, tenglik, diskriminatsiya, gender stereotiplari, xalqaro e‘tibor, sotsiolog, antropolog, psixolog, tarixiy kamsitish.

GENDER EQUALITY

Abstract. This article provides information about the concept of gender equality, several scholars who have contributed to the development of this concept, questions that have arisen from research, and the history of gender equality.

Key words: Concept of gender equality, equality, discrimination, gender stereotypes, international attention, sociologist, anthropologist, psychologist, historical discrimination.

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО

Аннотация. В этой статье представлена информация о концепции гендерного равенства, некоторых учёных, внесших вклад в создание этой концепции, вопросах, возникших в результате исследований, а также истории гендерного равенства.

Ключевые слова: Концепция гендерного равенства, равенство дискриминации, гендерные стереотипы, международное внимание, социолог, антрополог, психолог, историческая дискриминация.

KIRISH

Insoniyat yaralibdiki, erkak va ayollar o‘rtasida munosabat, jamiyatda, oilada ularning roli gender tenglik va gender adolat muammolariga e‘tibor qaratib kelinadi. Bugungi kunga kelib, ijtimoiy hayotning asosiy jabxalarida gender tenglikni ta‘minlash butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilishi o‘z isbotini topgan.¹

Gender tengligi haqida so‘z yuritishdan oldin, birinchi navbatda “gender” tushunchasiga e‘tibor qaratishimiz lozim. Gender (inglizcha, *gender* – urug‘) – inson jinsining ijtimoiy- madaniy va ma‘naviy jihatini ifoda etuvchi tushuncha. Gender iborasi ijtimoiy fanlarda jins mavzusini o‘rganishda yangicha yondashuv shakllangan pallada, ya‘ni 1950-yillardan boshlab kiritilgan.² Gender tengligi esa ushbu jinslarning biologic farqini anglash bilan bir qatorda, ularni ijtimoiy jihatdan teng ko‘rish demaktir.

¹ Егамбердиева Н.М.,Хонтураев Б.А. Гендер тадқиқотлари, гендер тахлили, мониторинг ва баҳолаш. – Тошкент: Махалла ва оила, 2023. –1046

² https://search.app/?link=https%3A%2F%2Foyina.uz%2Fuz%2Fteahouse%2F1074%23%3A~%3Atext%3DGender%2520%28inglizcha%2520gender%2520%25E2%2580%2593%2520urug%27%2Cni%25201950%2520yillardan%2520boshlab%2520kiritilgan.&utm_campaign=57165-or-igacx-web-shrbtn-iga-sharing&utm_source=igadl%2Cigatpdl%2Csh%2F%2Fgs%2Fm2%2F5

Jamiyatda har kim hech qanday kamsitishlarsiz o'z hayotini shunga yarasha olib borish huquqiga ega. Bu holatga erishilganda, barcha shaxslar tabaqasi, jinsi, rangi, kasbi va mavqeidan qat'i nazar, teng deb hisoblansa, biz buni tenglik deb ataymiz. Tenglik, shuningdek, har bir shaxs bir xil huquqlarga ega bo'lgan va o'sishi va gullab yashnashi uchun teng imkoniyatlarga ega bolgan vaziyat sifatida ham ta'riflanishi mumkin.

Savol tug'ilishi mumkin, nega gender tenglikni ta'minlash bunchalik muhim? Hozirgi kunda aksariyat davlatlar demokratik tuzum uchun harakat qilar ekan, uning asosiy tamoyillaridan biri bo'lmish tenglik prinsipini ta'minlash juda muhim hisoblanadi. Qadimgi urug'chilik jamiyatidan farqli o'laroq hokimiyatni yakka ota yoki ona qo'lida to'plashdan farqli o'laroq, jamiyatda ikkala qatlamning ham huquqlarini yetarlich ta'minlab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning har bir shaxsi teng huquq va o'z ixtiyorida mavjud resurslardan foydalanishni orzu qiladi, lekin bu borada juda ko'p kamsitishlar mavqe va hatto jinsiga bog'liq bo'lishi mumkin. Eng keng tarqalgan deskriminatsiya – bu gender tengsizlik. Bu mahalliy muammo emas va faqat hayotning ma'lum sohalari bilan cheklangan, lekin butun dunyoda keng tarqalgan. Hatto ilg'or jamiyatlarda va yuqori tashkilotlarda ham biz gender tarafkashlikning ko'plab misollariga guvoh bo'lishimiz mumkin. XVIII asrda vujudga kelgan va XIX-XX asrlarda butun dunyoda faol rivojlangan feministik harakat gender tengligi tushunchasining keng yoyilishiga yordam bergan. "Gender" konsepsiyasi fanga biologik jins, ya'ni ular asosida erkak va ayolga ajratiluvchi "jins" tushunchasidan farqlash uchun kiritilgan. "Gender" erkak va ayolning jamiyatdagi o'rni va rolini belgilovchi tushunchadir. Bu ikki terminni bir-biridan farqlab olish lozim. Gender muammosi ko'plab faylasuflar, jamiyatshunoslar, antropologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, psixolog va pedagoglarning e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Gender tengligi nazariyasiga oid ilk asarlar XIV-XV asrlarda paydo bo'la boshladi. Masalan, eng mashhurlaridan biri – "Ayollar shahri kitobi" o'rta asr yozuvchisi va italyan faylasufi Kristina Pizaga (1365-1440) tegishli.³ Genderning psixologik jihatlari taniqli ruxshunoslar Z.Freyd, T.Parsons, R.Stoller, Sh.Bern, A.Bandura, Simona de Beauvoir, A.Klima, S.Kon, A.Usmonova, I.S.Kletsina, E.G'oziyev, O.Abdusattorova, X.R.Haydarova; sotsiologiyaga oid qirralari E.Goffman, R.Xof, A.Kolstkorova, A.zdravomislova, A.A.Tyomkina, G.K.Zaytsey va A.G.zaytsev, muammolarni keltirib chiqara boshladi.

G.B.Urazaliyeva; falsafaga oid tomonlari Keyt Uest, D.Zimmerman, S.G.Ayvazova, I.Jerebkinalar; antropologiya bilan bogliq jihatlar E.R.Yarskaya-Smirnova; pedagogikaga oid ayrim qirralari esa L.Shustova, P.Repkina, R.Safarova, G.Akramova va yana bir qancha olimlarning ishlarida yoritilgan.⁴

METODLAR

Gender tengligi bilan bog'liq ushbu tadqiqotimiz turli xil nazariy va amaliy bilimlarga tayanilgan holda, miqdoriy hamda sifat usullarini o'zida birlashtirgan aralash metodologiyaga

³ De Pizan, Christine . The book of the City of Ladies. Translated by Rosalind Brown-Grany. Revised Edition. Penguin Classics, 2003

⁴ Егамбердиева Н.М.,Хонтураев Б.А. Гендер тадқиқотлари, гендер тахлили, мониторинг ва баҳолаш. – Тошкент: Махалла ва оила, 2023. –1046

asoslangan. Maqola shakl jihatdan IMRAD talabi asosida yozilgan. Ushbu mavzuni yoritib berishda milliy hamda xalqaro qonunchilik tizimiga asoslanib, turli qiyoslashlar olib borildi.

Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari tog‘risida”gi O‘RQ tahlili hamda “BMT ayollari” nomli BMT tashkiloti haqida ma’lumotlar yoritib berilgan. Qolaversa, ushbu maqola gender statistikasi, ushbu tushunchaning turli davlatlardagi o‘rni qanday ekanligi haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

NATIJALAR

Ayollar va qizlar dunyo aholisining yarmini tashkil etib, butun insoniyat salohiyatini to‘liq royobga chiqarish ularning jamiyat hayotida daxldorligiga bog‘liq: iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlaridan tortib jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta‘minlashgacha. Bugungi kunda, zamonaviy jamiyatda globallashuv va integratsion jarayonlarning keng ko‘lamda quloch yoyishi yangi Jamiyatshunos tadqiqotchilar tomonidan izchil va chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolar qatoriga bugun hech ikkilanmasdan “gender” jarayonlarni ham kiritish mumkin.

Qachonki biz gender tengligi jumlasini eshitganimizda negadir asosan ayollarning huquqlarining himoya qilinishi ko‘z oldimizga keladi. Nega bunday bo‘ladi? Nega faqatgina qaysidir bir jamiyat emas, balki butun dunyo xotin-qizlarni ham jismonan, ham ruhan kuchli bo‘lishi uchun kurashmoqda? Gender tenglik bizga nima uchun kerak? Gender tenglikni samarali amalga oshirish uchun nima qilish kerak, nimalarga e’tibor berish kerak? Bular hozirgi kunda aksariyat insonlar uchun begona savollar emas, albatta.

Nega gender tenglik deyilganda asosan ayollarning huquqlarini himoya qilish tushuniladi?

1. Tarixiy kamsitish. Ayollar tarixan ko‘plab jamiyatlarda kamsitilgan va ularning huquqlari cheklangan. Ular ko‘pincha iqtisodiy va siyosiy hayotda erkaklarga nisbatan pastroq maqomga ega bo‘lgan.

2. Gender stereotiplari. Ayollarga nisbatan an’anaviy stereotiplar, masalan, ”ayollar faqat uy ishlariga mas’ul“ yoki ”erkaklar ish bilan shugullanishi kerak“ kabi fikrlar, ayollarning imkoniyatlarini kamaytiradi va ularni kamsitishga olib keladi.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy farqlar. Bir qancha mamlakatlarda ayollar erkaklarga qaraganda kamroq maosh oladilar, ish joylarida o‘z o‘rnini topishda qiyinchiliklarga duch keladilar va yuqori lavozimlarga ko‘tarilish imkoniyatlari cheklangan.

4. Sog‘liq va ta’lim sohasidagi muammolar. Ayollar ko‘pincha sog‘liq va ta’lim sohasida diskriminatsiyaga uchraydilar. Misol uchun, qiz bolalarning ta’lim olishiga qarshi to‘siqlar, ularning kelajagi uchun salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

5. Zo‘ravonlik va xavfsizlik masalalari. Ayollar ko‘p hollarda jismoniy tazyiqlarga ko‘p uchraydilar va bu ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladi.

6. Xalqaro e’tibor. Xalqaro tashkilotlar va harakatlar, masalan, BMT va uning ”Xotin-qizlarga nisbatan deskriminatsiyani bartaraf etish togrisidagi konfensiya“ kabi hujjatlar ayollarning huquqlarini himoya qilishga katta e’tibor qaratmoqda.

Ushbu sabablar gender tengligi masalasida ayollarning huquqlarini ishonchli himoya qilishni dolzarb masala sifatida ko‘rishga olib kelmoqda.

Gender tengligini ta'minlash global muammo sifatida e'tirof etilgani bois, dunyoda ushbu tushunchaning qo'llanilishi qanchalik darajada rivojlanganligini statistik jadval ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

Unga ko'ra:

1.O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi:

O'rin	Gender tengligi ko'rsatkichi	Har yuz ming ayolning gender tengsizlik tufayli vafot etishi	15-19 yoshdagi har 1000 o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi
62-o'rin (189 mamlakat ichida)	0,288	29 nafar	23,8

2. Boshqa O'rta Osiyo mamlakatlari:

Mamlakat.	Turgan o'rni
Qozog'iston	44-o'rin
Qirg'iziston	82-o'rin
Tojikiston	70-o'rin
Turkmaniston	Ma'lumot yo'q

3. Rivojlangan mamlakatlarda ayollar va erkaklar o'rtasida maosh farqi:

Mamlakat	Foiz ko'rsatkichi
Shvetsiya	31%
Fransiya	31%
Germaniya	49%
Turkiya	75%

Ushbu so'ngi hisobotga ko'ra, gender tengligini ta'minlashning yana bir global chorasidan biri – butun dunyo bo'ylab ayollarni yaxshi ish joylari bilan ta'minlash.

Gender tengligi tushunchasini qoralovchilar buni imkonsiz iloji yoq narsa deb bilishadi, chunki "Erkak va ayol bir biridan farq qiladi va nafaqat jismoniy, balki, ruhiy jihatdan ham.

Agarda ayollarni ham erkaklar qiladigan ishni bajarishga majbur qilsa, ular o'zlarining sevimli mashg'ulotlari ya'ni bolalarga g'amxorlik qilish, do'kon aylanish, yuzlarini kosmetikalar bilan boyash, turli xil taomlar pishirish kabi mashg'ulotlarini bajarolmay qolishadi va natijada ular baxtli bola olishmaydi. Agarda ayollar jamiyatda faqat erkaklar ishini bajarishsa (o'tin kesish, mashinalarni ta'mirlash, bulldozer haydash) ular ham ruhan, ham jismonan zo'riqishga uchrashishadi", deb fikr bildirishadi. Biroq, gender tengligi nazariyasining tarafdorlari bu fikr ko'p avlodlar davomida patriarxal davri davom etganligi va insonlarni ilimga qarshi ta'limotlar, stereotiplar va jamoatchilik fikrlarini idrok etishiga kata ta'sir qiladi deb ta'kidlaydilar. Ba'zi psixolog va sotsiologlarning fikriga ko'ra zamonaviy jamiyatda psixika, harakter, xulq-atvor va fikrlash uslubi jinsga bog'liq degan fikr keng tarqalgan. ⁵

MUHOKAMA

⁵ Xusanova Dilafruz Xasanboy qizi, Fozilov Asror Akmal o'g'li GENDER TENGLIGI: JAMIYATDA GENDER TENGLIGIGA ERISHISH. //Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti. 2023. № 9151.

Gender tengligi ustida olib borilgan izlanishlar va statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu masala bo'yicha mamlakatimiz alohida faoliyat olib boradi va jahonda o'zining yetarli o'rniga ega. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi.", deya takidlangan. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunning ham maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish ekanligi aytilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonuniga asosan, oliy va professional ta'lim tashkilotlari bakalavr hamda magistraturaning kunduzgi ta'lim shaklida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qoyilgan va bunda, ayollar uchun ta'lim kreditini o' hech qanday foizlarsiz berilishi ta'minlangan.

Bundan maqsad ayollarning ilmiy bo'lishiga erishish hamda ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirib, ta'lim olishda ularni ijtimoiy jihatdan teng qilish ko'zlangan deya olamiz.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha qonun hujjatlarining asl mazmuni faqatgina ayollarning huquqini himoya qilish emas, balki, ularni jamiyatning boshqa a'zolari bilan ijtimoiy jihatdan tenglashtirish, "ayol kishi ishlamaydi, uyda, eriga, bolasiga qaraydi", kabi stereotiplarni insonlar miyyasidan o'chirish, "gender tengligi" tushunchasining asl mazmunini ularning ongiga singdirish ekanini aytishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ayollar va erkaklar tengligi madaniyatini shakllantirish – bu tizimli va doimiy jarayon bo'lib, keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni talab etadi.

Bu borada jamiyatning barcha jabhalari – davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, biznes sub'ektlari, kasaba uyushmalari va keng aholi qatlamlarining birgalikdagi va hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat barcha qatlamlarining maqsadli faoliyatini tashkil etish zarur gender-dezagratsiyalangan axborot bazasini yaratish, barcha hududlar darajasida gender vaziyatining gender tahlili va monitoringini o'tkazishni talab etadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. – Toshkent – "O'zbekiston" – 2023.
2. <https://search.app/7JH2SM5RdrJnzgr27>
3. <https://search.app/uXqtgigQXdaGjDft8>
4. Xusanova Dilafruz Xasanboy qizi, Fozilov Asror Akmal o'g'li GENDER TENGLIGI: JAMIYATDA GENDER TENGLIGIGA ERISHISH. //Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti. 2023. № 9151
5. Егамбердиева Н.М., Хонтураев Б.А. Гендер таджикотлари, гендер тахлили, мониторинг ва бахолаш. – Тошкент: Махалла ва оила, 2023. –1046

6. https://search.app/?link=https%3A%2F%2Foyina.uz%2Fuz%2Fteahouse%2F1074%23%3A~%3Atext%3DGender%2520%28inglizcha%2520gender%2520%25E2%2580%2593%2520urug%27%2Cni%25201950%2520yillardan%2520boshlab%2520kiritilgan.&utm_campaign=57165-or-igacx-web-shrbtn-iga-sharing&utm_source=igadl%2Cigatpdl%2Csh%2F%2F%2F%2F%2F%2F5
7. De Pizan, Christine. The book of the City of Ladies. Translated by Rosalind Brown-Grany. Revised Edition. Penguin Classics, 2003